

KONSOLIDATSIYALASHGAN VA ALOHIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNING FARQLI JIHATLARI

Eshonqulov Azamat Abdiraximovich

TIFT Universiteti "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasini mudiri iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent v.b.

E-mail: azamatabdiraximovich543@gmail.com

| ARTICLE INFORMATION | ABSTRACT |
|---|--|
| Volume: 1 Issue: 11 DOI: https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss11/a2 | Bu maqola konsolidatsiyalashgan va alohida hisobotlarning moliyaviy axborotlarni qanday taqdim etishimi va ularning soliq, investorlar va manfaatdor tomonlar nuqtai nazaridan qanday ta'sir ko'rsatishimi chuqurroq tushunishga yordam beradi hamda bu ikki turdag'i hisobotlarning real biznes amaliyotidagi qo'llanilishi, ulardan foydalanish osonligi va auditorlik jarayonlarida qanday rol o'yynashi haqida mulohazalar berilgan. |
| KEYWORDS | <i>konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar, alohida moliyaviy hisobotlar, kompaniya guruhi, sho'ba kompaniya, investorlar, auditorlik, soliq, moliyaviy axborot, amaliyot, farqlar.</i> |

Kirish(Introduction/Введение)

Konsolidatsiyalashgan va alohida moliyaviy hisobotlar hozirgi zamonaviy biznes muhitida muhim o'rinn tutadi. Bu hisobotlar moliyaviy faoliyatni aks ettiruvchi asos bo'lib, kompaniyalar va ularning sho'ba korxonalar faoliyatini umumlashtirishda yoki alohida kompaniyalar natijalarini aks ettirishda yordam beradi. Moliyaviy axborotni tayyorlashda va taqdim etishda aniq chegaralarni belgilash, foydalanuvchilar uchun ma'lumotlarning to'g'ri va ishonchli bo'lishini ta'minlash muhim hisoblanadi. Konsolidatsiyalashgan hisobotlar, bosh kompaniya va uning sho'ba kompaniyalar faoliyatini birlashtirib, butun kompaniya guruhining moliyaviy ahvolini bir butun holda ko'rsatadi. Bu turdag'i hisobotlar, odatda, aksiyadorlar va investorlar uchun ko'proq qiziqish uyg'otadi, chunki ular butun kompaniya guruhining umumiy moliyaviy natijalarini ko'rib chiqish imkonini beradi. Shu sababli, moliyaviy axborotning bir xilda taqdim etilishi va global hisobdorlikning oshishi uchun konsolidatsiyalashgan hisobotlar katta ahamiyatga ega. Alohida moliyaviy hisobotlar esa biror korxonaning moliyaviy natijalarini alohida ko'rsatadi. Bunday hisobotlar, odatda, korxonaning o'z investorlari, soliq organlari yoki boshqa manfaatdor tomonlar uchun tuziladi. Alohida hisobotlar orqali har bir kompaniya yoki sho'ba korxonaning moliyaviy holatini mustaqil ravishda baholash imkoniyati paydo bo'ladi, bu esa korxonanening moliyaviy barqarorligini o'lchashda yordam beradi. Ushbu ikki turdag'i hisobotlarning farqlari kompaniyalarning moliyaviy ahvolini baholashda hamda turli foydalanuvchilarining ehtiyojlarni qondirishda muhim rol o'yaydi. Konsolidatsiyalashgan va alohida hisobotlar o'tasidagi farqlar, ularning maqsadi va qo'llanilish sohalari bu mavzuni kengroq ko'rib chiqishni talab etadi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar nafaqat kompaniyaning moliyaviy natijalarini umumlashtiradi, balki uning butun guruh doirasidagi moliyaviy oqimlarni ham to'liq aks ettiradi. Bunday hisobotlar asosida korxonalar guruhi ichidagi barcha korxonalarning moliyaviy faoliyati birlashtiriladi, shuningdek, bir-biriga nisbatan qilinadigan ichki operatsiyalar chiqarib tashlanadi. Bu, korxona guruhining umumiy moliyaviy barqarorligi va muvaffaqiyatini ko'rsatishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bundan farqli ravishda, alohida moliyaviy hisobotlar, har bir korxonaning moliyaviy natijalarini mustaqil tarzda ko'rsatadi va boshqa korxonalar bilan ichki aloqalarni hisobga olmaydi. Bu turdag'i hisobotlar ko'proq milliy moliyaviy qonunchilikka asoslanadi va soliq organlari tomonidan talab qilinadigan asosiy hisobot turlaridan biri

hisoblanadi. Alohida hisobotlar orqali har bir kompaniyaning o'z faoliyati haqida batafsil ma'lumot olish imkoniyati paydo bo'ladi, bu esa ichki tahlillar uchun qulaydir. Konsolidatsiyalashgan va alohida hisobotlar o'tasidagi muhim farqlardan biri ularning foydalanuvchilari va maqsadlaridir. Konsolidatsiyalashgan hisobotlar investorlar va global miqyosda hisobotlarni ko'rib chiqishga ehtiyoji bor tomonlar uchun ko'proq ahamiyatga ega bo'lsa, alohida hisobotlar korxona rahbariyati, milliy soliq organlari va ichki menejerlar uchun qimmatli hisoblanadi. Shu sababli, har ikki turdag'i hisobotlarni tayyorlash, tuzish va talqin qilishda turli yondashuvlar qo'llaniladi.

Adabiyyotlar tahlili (Обзор литературы / Literature review)

Konsolidatsiyalashgan va alohida moliyaviy hisobotlar bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar moliyaviy axborotni tayyorlash, taqdim etish va talqin qilishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu mavzuga oid olimlar turli yondashuvlarni qo'llab, moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligi, shaffoflik, investorlarga axborot yetkazish va soliq qonunchiligiga ta'sirini chuqur o'rganishgan. Ular hisobot turlari o'tasidagi farqlarni tahlil qilib, kompaniyalar, investorlar va davlat idoralari uchun qanday ma'lumotlar qimmatiligidagi aniqlashga harakat qilishgan. Bu bo'yicha xorijlik olim Nobes konsolidatsiyalashgan va alohida moliyaviy hisobotlar o'tasidagi farqlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari nuqtai nazaridan tahlil qiladi. U konsolidatsiyalashgan hisobotlarning xalqaro miqyosda investorlar uchun muhimligini ta'kidlaydi[1]. Alexander moliyaviy hisobotlarda shaffoflik va hisobdorlikni oshirishda konsolidatsiyalashgan hisobotlarning roliga e'tibor qaratadi[2]. Jorissen kompaniyalar tomonidan konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar va alohida hisobotlarning tayyorlanishiga yondashuvlarni solishtiradi va bu ikki turdag'i hisobotlarning maqsadlari haqida batafsil ma'lumot beradi[3]. Baker konsolidatsiyalashgan hisobotlarning investorlarga global miqyosda yaxlit ma'lumot yetkazishdagi rolini ta'kidlaydi[4]. Modell konsolidatsiyalashgan va alohida hisobotlar o'tasidagi farqlarni davlat moliyaviy hisobotlari va xususiy sektor hisobotlari nuqtai nazaridan o'rganadi[5]. Sunder moliyaviy hisobotlarda shaffoflik va hisobotlarni standartlashtirishda xalqaro standartlarning ahamiyati haqida fikr bildiradi[6]. Doupnik konsolidatsiyalashgan va alohida hisobotlarning moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga mosligi va global bozorlar uchun qanday ahamiyatga ega ekanligini ta'diq etadi[7]. Weetman konsolidatsiyalashgan va alohida hisobotlarni moliyaviy menejment kontekstida o'rganib, ularning kompaniya qaror qabul qilish jarayonlariga

ta'sirini tahlil qiladi[8]. Giroux kompaniya ichki operatsiyalari va hisobotlar tayyorlash jarayonlarida konsolidatsiyalashgan hisobotlarning ahamiyatini o'rganadi[9]. Sullivan moliyaviy hisobotlarning turli mamlakatlarda qabul qilinishini va ularning milliy soliq tizimlariga ta'sirini tahlil qiladi[10]. Bu olimlar konsolidatsiyalashgan va alohida moliyaviy hisobotlarning amaliyotda qo'llanishi, ularning tahlili va xalqaro miqyosdagi roli haqida qimmatli tadqiqotlar olib borganlar.

Tadqiqotning maqsadi. Konsolidatsiyalashgan va alohida moliyaviy hisobotlarning asosiy farqlarini tahlil qilish, ularning qo'llanilishi sohalarini o'rganish va bu ikki turdag'i hisobotlarning moliyaviy axborotni taqdim etishda qanday ahamiyatga ega ekanligini aniqlashdir. Tadqiqot orqali konsolidatsiyalashgan hisobotlarning global investorlar va auditorlar uchun qanday afzalliklar berishi, alohida hisobotlarning esa soliq organlari va ichki menejment uchun qimmatli axborot manbai sifatida qanday ishlatalishini chuqurroq tushuntirish rejalashtirilgan. Shuningdek, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga moslashuv jarayoni va milliy hisobotlar amaliyoti o'rtasidagi munosabat ham tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda konsolidatsiyalashgan va alohida moliyaviy hisobotlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash uchun adabiyot tahlili metodidan foydalaniлади. Ilmiy maqolalar, kitoblar va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha nashr etilgan asarlar o'rganilib, ularning mazmuni tahlil qilinadi. Tadqiqotda nazariy manbalar orqali har ikki turdag'i hisobotlarning ta'siri, ularning foydalanuvchilarga yetkazadigan axborot qiyomi va qo'llanilishi doirasiga aniqlanadi. Shuningdek, bu metod orqali amaliyotda hisobotlarning qanday qo'llanishi haqida mavjud ma'lumotlar umumlashtirilib, maqsadga muvofiq bo'lgan xulosalar chiqariladi.

Tadqiqot usullar (Методология/Methodology)

Tadqiqotda ushbu usullar orqali konsolidatsiyalashgan va alohida moliyaviy hisobotlarning farqlari va ularning amaliyotda qanday qo'llanishi chuqur o'rganilishi uchun bir qator ilmiy usullardan foydalaniлади. Ushbu usullar yordamida nazariy bilimlarni tahlil qilish bilan bir qatorda, real amaliyotdagi misollar orqali hisobotlarning ahamiyatini va samaradorligi aniqlanadi. Shu bilan birga, ekspert intervylar va normativ-huquqiy tahlil orqali moliyaviy hisobotlar xalqaro va milliy standartlarga muvofiqligi baholanadi.

1. Solishtiruv usuli (Comparative analysis): Konsolidatsiyalashgan va alohida moliyaviy hisobotlarni o'zarो solishtirib, ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash. Ushbu usul turli hisobot turlarining maqsadi, tuzilishi va ularni tayyorlashda qo'llaniladigan tamoyillarni taqqoslash imkonini beradi.

2. Amaliy misollar tahlili (Case study analysis): Kompaniyalarning konsolidatsiyalashgan va alohida moliyaviy hisobotlarini o'rganish orqali real amaliyotdagi tendensiyalar va tajribalarni tahlil qilish. Bu usul orqali hisobotlarning foydalanuvchilar uchun qanchalik amaliy qiyamatga ega ekanligi aniqlanadi.

3. Normativ-huquqiy tahlil (Regulatory analysis): Moliyaviy hisobotlarning xalqaro va milliy standartlar va qonunchilikka muvofiqligini tahlil qilish. Bu usul orqali soliq, audit va boshqa tartibga soluvchi organlar tomonidan belgilangan talablar ko'rib chiqiladi.

4. Ekspert intervylar (Expert interviews): Moliyaviy hisobotlar bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar va auditorlar bilan intervylar o'tkazish. Ushbu usul amaliy tajribalarni aniqlash va hisobotlarning samaradorligini baholashga yordam beradi.

Bu usullar tadqiqotda konsolidatsiyalashgan va alohida moliyaviy hisobotlarning turli jihatlarini chuqur o'rganishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar (Анализ и результаты/ Analysis and results).

Moliyaviy hisobotlar kompaniya faoliyatini baholash va tashqi foydalanuvchilarga (investorlar, kreditorlar, davlat idoralari va boshqalar) axborot yetkazish vositasi sifatida muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan, moliyaviy hisobotlar turli maqsadlarga xizmat qiladi va ularning tuzilishi hamda mazmuni farqlanadi. Ikkita asosiy hisobot turi - konsolidatsiyalashgan va alohida moliyaviy hisobotlar - har birining o'ziga xos xususiyatlari bor. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot bir nechta o'zarо bog'liq kompaniyalar guruhining umumiyligi moliyaviy holatini aks ettirsa, alohida moliyaviy hisobot bitta yuridik shaxsning moliyaviy natijalarini ifodalaydi. Bu hisobotlarning foydalanuvchilari va ularning axborotga bo'lgan talablari turlicha bo'lganligi sababli, moliyaviy hisobotlarning har bir turi moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etadi. Konsolidatsiyalashgan hisobotlar asosan kompaniya guruhi

faoliyatini bir butun holatda ko'rsatishga intilsa, alohida hisobotlar ayrim korxona yoki tashkilot faoliyatini yoritadi. Har ikkala turdag'i hisobot ham muhim axborot manbai bo'lib, ularning farqlari hisobdarlik, soliq hisobi, hamda investorlar va boshqa manfaatdor tomonlarga axborot berish kabi masalalarda sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltiradi.

Quyida keltirilgan jadvallar konsolidatsiyalashgan va alohida moliyaviy hisobotlarning o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qilishga yordam beradi.

1-Jadval
Konsolidatsiyalashgan va alohida moliyaviy hisobotlarning o'xshash jihatlari

| No | Jihatlar | Konsolidatsiyalashgan hisobotlar | Alovida moliyaviy hisobotlar |
|----|----------------------------|---|---|
| 1. | Hisobot maqsadi | Kompaniyaning moliyaviy holatini taqdim etish | Kompaniyaning moliyaviy holatini taqdim etish |
| 2. | Standartlarga muvofiqligi | Xalqaro va milliy moliyaviy standartlarga rioya qilinadi | Xalqaro va milliy moliyaviy standartlarga rioya qilinadi |
| 3. | Moliyaviy ko'rsatkichlar | Aktivlar, passivlar, daromad va xarakatlarni aks ettiradi | Aktivlar, passivlar, daromad va xarakatlarni aks ettiradi |
| 4. | Moliyaviy foydalanuvchilar | Investorlar, kreditorlar, davlat idoralari va boshqalar | Investorlar, kreditorlar, davlat idoralari va boshqalar |
| 5. | Hisobot davri | Moliyaviy yil yakuni bo'yicha tayyorlanadi | Moliyaviy yil yakuni bo'yicha tayyorlanadi |

Yuqorida jadval konsolidatsiyalashgan va alohida moliyaviy hisobotlarning o'xshash jihatlarini ko'rsatadi. Har ikki turdag'i hisobotlar moliyaviy axborotlarni taqdim etish uchun bir xil maqsadga xizmat qilishi va xalqaro yoki milliy moliyaviy hisobot standartlariiga rioya qilishi zarur. Shuningdek, ular investorlarga, kreditorlarga va davlat idoraliga moliyaviy holat haqida asosiy ma'lumotlarni taqdim etadi. Ushbu o'xshashliklari shuni ko'rsatadi, moliyaviy hisobotlarning umumiyligi tuzilishi va foydalanuvchilarga yo'naltirilganligi asosiy jihatdan bir xil bo'lib, ularning asosiy farqlari hisobot doirasiga va uslubida namoyon bo'ladi.

2-Jadval
Konsolidatsiyalashgan va alohida moliyaviy hisobotlarning farqli jihatlari

| Jihatlar | Konsolidatsiyalashgan hisobotlar | Alovida moliyaviy hisobotlar |
|-------------------------------------|--|--|
| Taqdim etilan ma'lumotlar doirasasi | Kompaniya guruh umumiyligi moliyaviy natijalar | Faqat bitta yuridik shaxsning natijalar |
| Tahlil qilinadigan sub'ektlar | Qararo korxonalar sho'ba korxonalarini o'z ichiga oladi | Faqat mustaqil yuridik shaxsni qamrab oladi |
| Shaffoflik darajasi | O'zarо bog'liq operatsiyalar va daromadlarni birlashtiradi | Har bir sub'ekt alohida o'z moliyaviy ko'rsatkichlarini beradi |


Ikkinchchi jadval konsolidatsiyalashgan va alohida moliyaviy hisobotlarning asosiy farqlarini yoritadi. Konsolidatsiyalashgan hisobot kompaniya guruhining umumiyligi moliyaviy holatini aks ettirib, sho'ba korxonalarining natijalarini birlashtiradi va o'zarо bog'liq operatsiyalarni chiqarib tashlaydi. Buning aksiga, alohida moliyaviy hisobot faqat bitta yuridik shaxsning moliyaviy natijalarini ko'rsatadi va mustaqil korxonalar sifatida harakat qiladi. Bu farqlar moliyaviy axborotning ko'lami va maqsadga muvofiqligida sezilarli darajada namoyon bo'ladi, bu esa turli manfaatdor tomonlar uchun axborotning shaffofligi va aniq yo'naltirilishini ta'minlaydi.

3-Jadval
Konsolidatsiyalashgan va alohida moliyaviy hisobotlar bo'yicha hisob-kitob va nazorat

| Jihatlar | Konsolidatsiyalashgan hisobotlar | Alovida moliyaviy hisobotlar |
|-----------------------------|---|---|
| Nazorat va go'shilish usuli | Sho'ba korxonalarini moliyaviy natijalarga qo'shadi | Mustaqil yuridik shaxs sifatida ko'rsatiladi |
| Hisob usullari | O'zarо bog'liq operatsiyalar hisobga olimmaydi | Barcha operatsiyalar mustaqil hisoblanadi |
| Soliq va moliyaviy ta'sir | Barcha guruh kompaniyalar uchun vazona hisobot | Soliq va hisobotlar faqat bitta tashkilot uchun hisoblanadi |

Uchinchi jadval konsolidatsiyalashgan va alohida moliyaviy hisobotlar bo'yicha hisob-kitob va nazorat mexanizmlarini taqqoslaydi. Konsolidatsiyalashgan hisobotda sho'ba korxonalarining moliyaviy natijalarini birlashtirilib, umumiy kompaniya guruhining moliyaviy holati ko'rsatiladi, bu esa ichki va o'zarо bog'liq operatsiyalarni bartaraf etadi. Alohida hisobotlar esa har bir yuridik shaxsning moliyaviy ko'rsatkichlarini mustaqil ravishda hisoblab chiqadi va hisobotlarda soliq va boshqa moliyaviy ko'rsatkichlar faqat bitta tashkilot uchun ko'rsatiladi. Bu farqlar kompaniyalar guruhi ichidagi ko'rinnmas moliyaviy oqimlarni


yaxshiroq boshqarish uchun konsolidatsiyalashgan hisobotni, alohida tashkilotlar uchun esa shaxsiy hisob-kitobni muhim qilib qo'yadi. Bu jadvallar orqali konsolidatsiyalashgan va alohida moliyaviy hisobotlar o'rtafigi asosiy farqlar va o'xshashliklar aniqlanadi, bu esa ularning foydalanuvchilarga qanday turli ma'lumotlar taqdim etishini tushunishga yordam beradi.



1-Rasm. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar tuzilishi

Konsolidatsiyalashgan va alohida moliyaviy hisobotlarning tuzilishi va ularning qanday shakllantirilishini vizual tarzda tushuntiradi. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot bir nechta sho'ba va bog'liq korxonalarni o'z ichiga olgan holda, kompaniya guruhining umumiy moliyaviy natijalarini birlashtiradi. Alohida moliyaviy hisobot esa faqat bir yuridik shaxsning moliyaviy ko'rsatkichlarini aks ettiradi. Quida keltirilgan rasmlar har ikki turdag'i hisobotlarning asosiy farqlari va ularning moliyaviy axborot taqdim etishagi yondashuvlarini yanada aniqroq tushunishga yordam beradi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot yuqori (holding) kompaniyaning barcha sho'ba korxonalarini faoliyatini birlashtiradi. Sho'ba korxonalar to'liq yoki qisman egalik qilingan bo'lsa ham, ularning moliyaviy natijalarini holding kompaniyasining natijalariga qo'shiladi. Bu hisobotlar umumiyligi kompaniya guruhini faoliyatini ko'rsatadi.



2-rasm. Alohida moliyaviy hisobotlar tuzilishi

Alohida moliyaviy hisobotlarning tuzilishini ko'rsatadi va mustaqil yuridik shaxsning moliyaviy holatini aks ettiradi. Bu hisobotda faqat bitta kompaniyaning aktivlari, passivlari, daromadlari va xarajatlari ko'rsatiladi. Alohida moliyaviy hisobotlar o'zaro bog'liq kompaniyalar yoki sho'ba korxonalaridan farqli o'laroq, har bir yuridik shaxsning o'z faoliyatini mustaqil ravishda yuritishini va moliyaviy ko'rsatkichlarini boshqarishini ta'minlaydi. Ushbu chizma, alohida hisobotlarning qanday qilib korxonaning ichki va tashqi manfaatdorlariga aniq va to'g'ri axborot taqdim etishini vizual tarzda namoyish etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, konsolidatsiyalashgan va alohida moliyaviy hisobotlar o'rtafigi asosiy farqlar ularning qo'llanish sohasida va foydalanuvchilarga taqdim etadigan axborotning ko'lami va mazmunida namoyon bo'ladi. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar kompaniya guruhining umumiyligi moliyaviy holatini ifodalashga mo'ljallangan bo'lsa, alohida moliyaviy hisobotlar bitta yuridik shaxsning moliyaviy faoliyatini aks ettiradi. Bu ikki turdag'i hisobotlarni to'g'ri tushunish va ularga nisbatan tegishli tahillarni o'tkazish kompaniyalar va manfaatdor tomonlar uchun juda muhimdir.

Bu yerda ABC kompaniyalar guruhi sho'ba korxonalaridan iborat bo'lib, u o'zining konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotida sho'ba korxonalar - X, Y, va Z kompaniyalarini natijalarini birlashtiradi. Bunda, X va Y kompaniyalar o'rtafigi savdo operatsiyalarini chiqarib tashlanadi, chunki ular bir guruhning ichida amalga oshirilgan. Shu bilan birga, Z kompaniyasi mustaqil ravishda o'zining alohida moliyaviy hisobotini

tayyorlaydi, chunki u huquqiy jihatdan mustaqil shaxs sifatida faoliyat yuritadi. Bu holat nafaqat hisobotlarni soliq masalalarida farqlash, balki ichki boshqaruv va investorlar uchun axborot taqdim etishda ham muhim o'rinn tutadi.

ABC Holding kompaniyasining quyidagi sho'ba korxonalarini mavjud:

- **X Korxona (100% egalik)**
- **Y Korxona (75% egalik)**
- **Z Korxona (50% egalik)**

Ushbu korxonalar quyidagi moliyaviy natijalarga ega (mln so'mda):

| Korxona | Aktivlar | Passivlar | Daromadlar |
|-----------|----------|-----------|------------|
| X Korxona | 500 | 200 | 300 |
| Y Korxona | 600 | 250 | 350 |
| Z Korxona | 400 | 180 | 250 |

O'zaro operatsiyalar:

X va Y korxonalar o'rtafiga 50 mln so'm savdo operatsiyasi amalga oshirilgan.

Alohida moliyaviy hisobot (X korxona misoli):

X Korxona mustaqil ravishda alohida hisobot tayyorlaydi:

- Aktivlar: 500 mln so'm
- Passivlar: 200 mln so'm
- Daromadlar: 300 mln so'm
- Xarajatlar: 100 mln so'm

Bu yerda boshqa sho'ba korxonalar bilan bog'liq operatsiyalar alohida ko'rsatilmaydi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot:

Konsolidatsiyalashgan hisobotda barcha sho'ba korxonalarining moliyaviy ko'rsatkichlari birlashtiriladi, lekin ichki (o'zaro) operatsiyalar chiqarib tashlanadi.

- Aktivlar: $500 + 600 + 400 = 1,500$ mln so'm
- Passivlar: $200 + 250 + 180 = 630$ mln so'm
- Daromadlar: $300 + 350 + 250 - 50$ (ichki savdo) = 850 mln so'm
- Xarajatlar: $100 + 150 + 120 = 370$ mln so'm

Bu yerda ichki operatsiya (X va Y korxonalar o'rtafiga 50 mln so'm) daromad va xarajatlardan chiqarib tashlanadi, chunki bu savdo faqat guruh ichida amalga oshirilgan.

Ushbu misol konsolidatsiyalashgan va alohida moliyaviy hisobotlar o'rtafigi asosiy farqlarni ko'rsatadi. Konsolidatsiyalashgan hisobot umumiyligi kompaniya guruhining moliyaviy ko'rsatkichlarni aks ettiradi, o'zaro operatsiyalar chiqarib tashlanadi. Alohida hisobot esa har bir korxonaning individual moliyaviy natijalarini mustaqil ravishda taqdim etadi, o'zaro bog'liq operatsiyalarini ko'rsatmaydi.

XULOSA (Заключение, Conclusion).

Xulosa qilganimizda konsolidatsiyalashgan va alohida moliyaviy hisobotlar kompaniyaning moliyaviy faoliyatini taqdim etishning muhim usullari bo'lib, ular har xil maqsad va ko'lamga ega. Konsolidatsiyalashgan hisobot kompaniya guruhini darajasidagi umumiyligi moliyaviy holatni aks ettiradi, barcha sho'ba korxonalarining aktivlari, passivlari, daromadlari va xarajatlarni birlashtiradi. Shu bilan birga, ichki o'zaro operatsiyalar chiqarib tashlanadi, bu esa tashqi foydalanuvchilar, masalan, investorlar va kreditorlar uchun kompaniya guruhining umumiyligi ko'rsatkichlarni to'liq ko'rishga imkon beradi. Alohida moliyaviy hisobot esa mustaqil yuridik shaxsning moliyaviy ko'rsatkichlarni aks ettirib, shaxsiy mulk va majburiyatlarni alohida ko'rsatishni talab qildi.

Mazkur tadqiqot va tahlillar natijasi shuni ko'rsatadi, har ikki turdag'i hisobotlar o'z foydalanuvchilari uchun muhimdir. Konsolidatsiyalashgan hisobotlar guruh kompaniyasi faoliyati to'g'risida umumiyligi tasavvur bersa, alohida moliyaviy hisobotlar bitta yuridik shaxsning aniq moliyaviy holatini aks ettirish uchun mo'ljallangan. Bu farqlar, shuningdek, nazorat, boshqaruv va tahlil qilish jarayonlarida sezilarli darajada namoyon bo'ladi. Mazkur hisobotlar yordamida turli manfaatdor tomonlar, masalan, investitsiyalar va qarz beruvchilar, aniq va o'zaro taqqoslanadigan ma'lumotlarni oladilar.

References:

1. Nobes Christopher. International Variations in IFRS Adoption and Practice. London: CIMA Publishing, 2014. 200 bet 157-beti.
2. Alexander David. Financial Accounting: An International Introduction. Harlow: Pearson Education, 2016. 300 bet. 89-beti.

-
3. Jorissen Anne. Accounting Theory and Practice: A Case Study Approach. New York: McGraw-Hill, 2005. 250 bet. 204-beti.
 4. Baker Richard. Advanced Financial Accounting. New York: Wiley, 2011. 400 bet. 312-beti.
 5. Modell Sven. Institutional Research on Accounting in the Public Sector: Its Contribution to Practice. London: Routledge, 2009. 180 bet. 45-beti.
 6. Sunder Shyam. Theory of Accounting and Control. Cincinnati: South-Western College Publishing, 2007. 350 bet. 173-beti.
 7. Doupnik, Timothy. International Accounting. New York: McGraw-Hill, 2019. 500 bet. 260-beti.
 8. Weetman Pauline. Financial and Management Accounting: An Introduction. Harlow: Pearson Education, 2020. 450 bet. 198-beti.
 9. Giroux Gary A. Accounting History and the Rise of Corporate Reporting. New York: Routledge, 2006. 300 bet. 126-beti.
 10. Sullivan Kerry E. Global Financial Reporting and Analysis. London: Palgrave Macmillan, 2018. 280 bet. Fikr 88-beti.
 11. Nasreddinov S.S. Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotni tuzishning nazariy va uslubiy masalalari (“Dori-Darmon” davlat aksiyadorlik birlashmasi misolida) iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati, Toshkent: 2004. -22 b;.
 12. N.B.Xo'jabekov Xo'jalik yurituvchi subyektlarni birlashtirishda konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotni takomillashtirish: iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati, Toshkent: 2009. 22 b.